



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
IQTISODIYOT VA MOLIYA  
VAZIRLIGI

# YILLIK HISOBOT

YASHIL IQTISODIYOTNI  
RIVOJLANTIRISH BO'YICHA

2024-YIL YAKUNI BO'YICHA



Toshkent 2025

Ushbu hisobot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-436-son qarorida belgilangan topshiriqqa asosan tayyorlandi hamda 2030-yilgacha har yili tayyorlanib chop etiladi. Mazkur hisobotda 2023-yil davomida yashil iqtisodiyot va yashil o'sish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, loyihalar va chora-tadbirlar haqida ma'lumot berilgan.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Jahon banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining malakali mutaxassislarini jalb qilgan holda **O'zbekistonning kam uglerodli rivojlantirish (dekarbonizatsiya) bo'yicha uzoq muddatli Strategiya** loyihasi ishlab chiqilmoqda.

***Ma'lumot uchun:** BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij bitimining 4-moddasiga muvofiq barcha mamlakatlar o'zining iqlim sharoitlari va muammolaridan kelib chiqib, joriy asr o'rtasigacha mo'ljallangan uzoq muddatli kam uglerodli rivojlantirish (dekarbonizatsiyalash) strategiyasini ishlab chiqish belgilangan.*

**Dekarbonizatsiya bo'yicha uzoq muddatli strategiya (LTS)** – bu mamlakatning kelgusi o'nlab yillar davomida issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish bo'yicha rejasini belgilovchi hujjatdir. Bu strategiya Parij bitimi doirasidagi majburiyatlarning muhim qismi bo'lib, mamlakatlardan kam uglerodli rivojlanish strategiyalarini (LT-LEDS) ishlab chiqishni talab qiladi.

Parij bitimi doirasida ko'plab davlatlar 2050–2060-yillargacha uglerod neytralligiga erishish majburiyatini olgan. Uzoq muddatli strategiya bu maqsadga erishish uchun tizimli yondashuvni ta'minlaydi.

***Ma'lumot uchun:** Iqlim o'zgarishi va taraqqiyot to'g'risidagi milliy hisobot 2023-yil noyabr oyida ishlab chiqilgan bo'lib, (Country Climate and Development Report – CCDR) Jahon bankining o'ziga xos va takrorlanmas hisoboti bo'lib, iqlim o'zgarishi sharoitida barqaror rivojlanishga yordam beruvchi asosiy diagnostika vositasidir.*

Strategiya mamlakatda "yashil" iqtisodiyotga o'tish sohasida olib borilayotgan islohotlar, tadqiqotlari, shu jumladan Jahon banki bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan **Mamlakatning iqlim o'zgarishiva rivojlanishi to'g'risidagi milliy hisoboti (Country Climate and Development Report - CCDR)** bilan muvofiq holda ishlab chiqilmoqda.

## **Strategiyada quyidagi tarmoqlar qamrab olingan:**

1. Energetika va sizuvchan gazlar (transport va binolar);
2. Qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va yerlardan foydalanish;
3. Sanoat sohasi;
4. Chiqindilar sohasi.

Strategiya doirasida kam uglerodli rivojlanishning 2 ta ssenariyalari ishlab chiqilgan. Mazkur 2 ta ssenariylar inersion (business as usual) ssenariy bilan solishtirgan holda ularning mamlakat iqtisodiyoti, bandligi va energetika sohasiga ta'sirlari miqdoriy jihatdan tahlil qilingan. Bunda:

**Inersion ssenariy:** Mazkur ssenariyda hozirda mamlakatda olib borilayotgan siyosiy islohotlar nazarda tutilgan. Bunda 2025-yilgacha bo'lgan islohotlar boshlangan deb qabul qilinadi. Parij bitimi doirasidagi bugungi kunda qabul qilingan Milliy miqyosda belgilangan hissa (Nationally Determined Contribution - NDC) maqsadlari bilan muvofiqlashtirilgan.

**2060 dekarbonizatsiya ssenariysi:** Amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlarni maqbul paytda bajarish nazarda tutilgan. Parij bitimi doirasidagi NDC maqsadlariga nisbatan ko'proq ambitsiyali maqsadlar belgilangan. Issiqxona gazlarini qisqartirilishi bo'yicha chora-tadbirlar global ekologik muammolarni yechish muddatlari bilan muvofiqlashtirilgan. Iqtisodiyot 2060-yilda to'liq dekarbonizatsiyaga erishadi.

### ***Kam uglerodli rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiya quyidagilarni qamrab oladi:***

- ✓ *Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha yo'l xaritalari – energiya, sanoat, transport, qishloq xo'jaligi va qurilish sohalari uchun aniq issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish rejalari;*
- ✓ *Siyosat va qonunchilik tizimlari – yashil investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha qonunlar va subsidiya dasturlari;*
- ✓ *Texnologik rivojlanish yo'nalishlari – vodorod energiyasi, elektr transport vositalari (EV), uglerod tutib qolish va saqlash (CCS) texnologiyalarini joriy etish;*
- ✓ *Iqtisodiy modellashtirish – yashil ish o'rinlari, Yalpi ichki mahsulot va sanoat o'zgarishlariga ta'siri;*
- ✓ *Xalqaro hamkorlik – iqlim moliyalashtirish va xalqaro savdo siyosati bilan inteqratsiya.*

Ushbu uzoq muddatli kam uglerodli rivojlantirish strategiyasi qazilma yoqilg'ilarga bog'liqlikni kamaytirib, quyosh, shamol va vodorod energiyasi kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tib, barqaror sohalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu strategiya iqlim xavf-xatarlariga moslashish, havo sifati va suv resurslarini yaxshilash hamda biologik xilma-xillikni saqlashga yordam beradi.

Kam uglerodli rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiya mamlakatlarga iqlim barqarorligi, iqtisodiy o'sish va energiya xavfsizligini mustahkamlash uchun zarur. Bu kam uglerodli kelajakka o'tish, yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish va atrof-muhitni muhofaza qilishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-avgustdagi "Jahon banki ishtirokida **"Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash" loyihasini** amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-271-son qaroriga muvofiq **iCRAFT** loyihasi bo'yicha bir qator ishlar olib borilmoqda.

iCRAFT loyihasi doirasida Jahon banki huzuridagi **"Uglerod aktivlari transformativ fondi"**ning (Transformative Carbon Asset Facility – TCAF) moliyaviy ko'magida energetika sohasidagi islohotlar natijasida issiqxona gazlari emissiyalarini qisqartirish natijasida O'zbekiston hukumatiga xalqaro uglerod bozorida ishtirok etishda ko'maklashish maqsadida **45 mln. AQSH dollar** miqdoridagi moliyaviy mablag'larni 2024–2028-yillar davomida jalb qilinishi ko'zda tutilgan.

***Ma'lumot uchun:** TCAF – Jahon bankning trust fondi bo'lib mamlakatlarning uglerod narxini bozorga chiqarish va xususiy sektorga past uglerodli texnologiyalarga sarmoya kiritishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi.*



2024-yil 27–28-iyun hamda 22-oktabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Jahon banki bilan hamkorlikda iCRAFT loyihasi doirasida Norvegiyaning "Carbon Limits" hamda "Juru" xalqaro konsalting kompaniyalari ekspertlarini jalb qilgan holda Iqlim o'zgarishi bo'yicha **Parij bitimining 6-moddasi bo'yicha** mahalliy vazirlik va idoralar mutaxassislarining **salohiyatini oshirish maqsadida seminar-trening tashkil qilindi.**

Seminarda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Transport vazirligi, Energetika vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Hidrometeorologiya xizmati agentligi va Strategik islohotlar agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, vazirlik huzuridagi "Yashil iqtisodiyot loyihalari" markazi vakillari hamda Jahon bankining energetika va iqlim o'zgarishi bo'yicha ekspertlari guruhi ishtirok etishdi.



Seminar davomida "Carbon Limits" hamda "Juru" kompaniyalari ekspertlari tomonidan Parij bitimi 6-moddasining asosiy elementlari, issiqxona gazlari savdosini yo'lga qo'yishning huquqiy asoslari, infratuzilmasi va strategiyasi, institutsional salohiyati hamda ushbu yo'nalishda chora-tadbirlar faoliyatini rivojlantirish va audit to'g'risida batafsil tushunchalar berildi.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda O'zbekistonda Parij bitimi 6-moddasi doirasida qisqartirilgan issiqxona gazlari emissiyasi xalqaro savdosini amalga oshirishni tartibga soluvchi huquqiy hujjat ishlab chiqish muhokama qilindi.

Bunda ichki va xalqaro bozor talab va takliflari, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning xalqaro tajribalari asosida mamlakatda issiqxona gazlarini qisqartirishga qaratilgan loyihalarga investitsiyalar oqimini kengaytirishga zamin yaratadigan kompleks mexanizm ishlab chiqish tashabbusi olg'a surildi.

iCRAFT loyihasi doirasida 2024-yilda Jahon banki hamda tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022-yil bo'yicha energetika ko'rsatkichlari asosida **Birinchi yillik hisobot (Annual report)** ishlab chiqilib, o'rnatilgan tartibda AENOR mustaqil verifikator tashkilotidan verifikatsiya jarayonidan o'tkazildi. Ushbu yillik hisobot ko'rsatkichlariga asosan 2022-yil yakuni bilan O'zbekistonda **3,6 mln. tonna CO2 ekv.** issiqxona gazlari emissiyasi qisqartirildi va ularning bir qismi (500 ming tonna) Kamaytirilgan emissiyani sotib olish shartnomasi (Emission Reduction Purchase Agreement – ERPA) asosida simulyatsiya sifatida Jahon bankiga o'tkazish natijasida **7,5 mln. AQSH dollar** miqdorda birinchi transh mablag'lari o'zlashtirildi.

**Ma'lumot uchun:** Loyiha quyidagi komponentlarni qamrab oladi:

**1-komponent:** “Qisqartirilgan emissiyalarni sotib olish shartnomasi” (*Emission Reduction Purchase Agreement – ERPA*) doirasida issiqxona gazlari uglerod savdosi simulatsiyasi sifatida Jahon bankiga o'tkazilib, O'zbekistonga qaytariladi va **20 mln. AQSH dollar** miqdoridagi grant mablag'lari ajratiladi.

**2-komponent:** “Oqibatlarni yumshatish natijalarini sotib olish shartnomasi” (*Mitigation Outcome Purchase Agreement – MOPA*) doirasida qisqartirilayotgan issiqxona gazlarini halqaro uglerod savdosi amalga oshirilib, Jahon bankiga qaytarib bo'lmaydigan tarzda to'liq o'tkaziladi va **25 mln. AQSH dollar** miqdoridagi mablag'lar ajratiladi.

**1,25 mln. AQSh dollari** miqdoridagi mablag'lar Jahon banki orqali O'zbekiston Respublikasi nomidan Moslashish va emissiyalarni ajsartirish global jama'armasiqa vo'naltiriladi.

Birinchi transh mablag'larini o'zlashtirilishi unumdorligini oshirish maqsadida mablag'larni aniq yo'nalishlarda sarflanishi bo'yicha mablag'lar taqsimoti ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-iyundagi 03/103-28-son topshirig'i bilan tasdiqlandi.

Loyiha doirasida **7,5 mln. AQSH dollar** miqdoridagi 2-transh mablag'larini jalb qilish uchun 2023-yil ko'rsatkichlari asosida **Ikkinchi yillik hisobot (Annual report)** tayyorlanib, o'rnatilgan tartibda **AENOR mustaqil verifikator tashkilotidan** verifikatsiya jarayonidan o'tkazildi. Ushbu ikkinchi yillik hisobot ko'rsatkichlariga asosan 2023-yil yakuni bilan O'zbekistonda **6.3 mln. tonna CO2 ekv.** issiqxona gazlari qisqartirilishiga erishildi.

Fransiya taraqqiyot agentligi (AFD) bilan hamkorlikda “**Yashil iqtisodiyot siyosatini kreditlash dasturi**” (**Green Economy Policy Loan Program**) amalga oshirilmoqda.

Mazkur dastur doirasida qazilma yoqilg'ilari subsidiyalarini xatlovdan o'tkazish va kamaytirish, iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash bo'yicha uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish, milliy miqyosda issiqxona gazlari emissiyasining monitoringi, hisoboti va tekshiruvi (MRV) tizimini joriy etish, “yashil” byudjetlashtirish va soliqqa tortishni joriy qilish hamda boshqa yo'nalishlarda ishlar amalga oshirildi.


2022-yil davomida AFD byudjet ko'magi mablag'lari hisobidan O'zbekiston Respublikasi byudjetiga **150 mln.yevro** hamda 2023-2024-yillar davomida **125 mln.yevro** miqdoridagi qarz mablag'lari o'zlashtirildi.

Shuningdek, AFD tomonidan mazkur dastur doirasida 2025-2026 yillar uchun **200 mln.yevro** miqdorida byudjet ko'magi ajratish rejalashtirilgan.

Yashil iqtisodiyotga texnik yordam dasturi (Green Economy Technical Assistance Program – GETAP) AFD va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi moliyalashtirish shartnomasi doirasida 6,1 mln.yevro miqdorida mablag' bilan ta'minlangan. GETAP dasturi 2026 yil yakunigacha davom etadi.

“Expertise France” tomonidan amalga oshiriladigan texnik yordam AFD hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda amalga oshirilayotgan “Yashil iqtisodiyot islohotlarini kreditlash dasturi” (Green Economy Policy Loan Program) bilan muvofiqlashtirilgan.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tashabbusi bilan Fransiya taraqqiyot agentligi hamda Expertise France bilan hamkorlikda **O'zbekistonda Milliy shaffoflik tizimi** joriy qilinmoqda.



Milliy shaffoflik tizimi respublika miqyosida barcha darajadagi issiqxona gazlari emissiyasini qamrab oluvchi zamonaviy Monitoring, hisobot va tekshiruv (Measurement Reporting and Verification – MRV) tizimining yanada takomillashtirilgan versiyasi hisoblanadi.

**Milliy (takomillashtirilgan) shaffoflik tizimi (Enhanced Transparency Framework – ETF)** – bu Parij bitimining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, mamlakatlarning iqlim bo'yicha harakatlarini yanada shaffof, aniq va solishtirishga qulay qilish uchun ishlab chiqilgan. Bu tizim milliy miqyosda belgilangan hissalar (NDCs), issiqxona gazlari emissiyasi va iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar yuzasidan umumiy hisobot berish va ko'rib chiqish qoidalarini belgilaydi.

**Ma'lumot uchun:** Iqlim o'zgarishi bo'yicha **Parij bitimining 13-moddasida** issiqxona gazlari ajratmalarini qisqartirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda mamlakatlar tomonidan iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatish va unga moslashish choralari ko'rilishi hisobidan erishilgan natijalarni doimiy ravishda baholab borish maqsadida takomillashtirilgan shaffoflik tizimini yo'lga qo'yish nazarda tutilgan.

Fransiya taraqqiyot agentligi hamda "Expertise France" tashkiloti tomonidan 2024-yil 29-aprel va 3-may kunlari oralig'ida Marokashning Rabat shahrida "Monitoring, hisobot va tekshiruv (MRV) tizimini joriy etishda Marokash tajribasini o'rganish" o'quv-dasturi tashkil etildi.

**Ma'lumot uchun:** Marokashning MRV tizimi bo'yicha 20 yillik muvaffaqiyatli faoliyati O'zbekistonning iqlim bo'yicha harakatlar strategiyasi uchun xalqaro tajriba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Marokash, shuningdek, issiqxona gazlari to'g'risidagi keng qamrovli ma'lumotlar bazasini tahlil qilish va issiqxona gazlarini inventarizatsiya qilish uchun elektron platformani yuritish bo'yicha uzoq yillik tajribaga ega.

MRV tizmi bo'yicha o'quv dasturi doirasida O'zbekiston delegatsiyasi vakillari **Marokashning Energetika va barqaror rivojlanish vazirligi xodimlari bilan uchrashuv** o'tkazdi



Uchrashuvda O'zbekiston tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, "Uztransgaz" AJ xodimlari, Fransiya taraqqiyot agentligi (AFD), "Expertise France" ekspertlari, Marokash tomonidan esa Energetika va barqaror rivojlanish vazirligi vakillari ishtirok etdi.

Marokashning Energetika va barqaror rivojlanish vazirligi mutaxassislari tomonidan mamlakatning iqlim o'zgarishi sohasida hamda milliy miqyosda belgilangan hissalariga (NDC) erishish, 2050-yilgacha kam uglerodli rivojlanish strategiyasi asosida iqtisodiyotning **7 ta asosiy sektorida** milliy darajada va tarmoqlar kesimida dekarbonizatsiya qilish yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha taqdimot qilindi.

Uchrashuv davomida tomonlar MRV tizimi faoliyatini samarali tashkil etishda **Marokashning “Iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha hududiy rejalar” tajribasini** muhokama qildi. Xususan, issiqxona gazlari inventarizatsiyasini amalga oshirish, hudud va tarmoqlar kesimida MRV tizimini joriy qilish hamda tizim sifati va nazoratini ta‘minlash maqsadida turli organlar hamda manfaatdor tomonlarning faoliyatini belgilash uchun institutsional normativ hujjat ishlab chiqish taklif qilindi.

Shuningdek, **“Shaffoflik bo‘yicha salohiyatni oshirish tashabbusi” global hamkorlik platformasi** orqali manfaatdor davlat organlari mutaxassislarining MRV tizimini joriy etish hamda yuritish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish muhim qadam ekani alohida ta‘kidlandi.

**O‘zbekiston delegatsiyasi a‘zolari** Energetika va barqaror rivojlanish vazirligining MRV tizimi statistik ma‘lumotlarini yig‘ish bo‘yicha mas‘ul **Energetika va statistika boshqarmasi vakillari bilan uchrashdi.**



Uchrashuvda Energetika va barqaror rivojlanish vazirligi xodimlari tomonidan energetika hamda sanoat sohasiga oid issiqxona gazlari bo‘yicha statistik ma‘lumotlar yig‘ilishini tizimlashtirish va raqamlashtirish, ularni qayta ishlash, tahlil qilish va inventarizatsiyani ichki tasdiqlash bo‘yicha taqdimot o‘tkazildi.

Bu borada 2015-yilda joriy qilingan issiqxona gazlari emissiyasi inventarizatsiyasiga mo‘ljallangan ma‘lumotlar bazasi va reyestrini qamrab oluvchi **Marokashning milliy issiqxona gazlari inventarizatsiyasi tizimi (SNI-GES)** hamda uning faoliyati bilan tanishildi.

Shuningdek, SNI-GES tizimida issiqxona gazlari emissiyalarini hisoblash Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshidagi Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hukumatlararo panel (IPCC) tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan metodologiya asosida amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda eski ishlab chiqarishga asoslangan usuldan yangi iste‘molga asoslangan usulga o‘tish muhimligi ta‘kidlab o‘tiladi.

Uchrashuv davomida tomonlar Marokashning energetika sohasida issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirishga qaratilgan loyihalari, jumladan, energiya ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini oshirish, energiya samarador texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni muhokama qildi.

**O'zbekiston delegatsiyasi a'zolari** Marokashning qishloq va o'rmon xo'jaligi hamda suv xo'jaligi sohasida issiqxona gazlari emissiyasi inventarizatsiyasini amalga oshirish bo'yicha tajribasini o'rganish maqsadida **Qishloq, suv va o'rmon xo'jaligi vazirligi vakillari bilan uchrashdi.**

Uchrashuv kun tartibida dastlab o'rmon xo'jaligi va yerdan foydalanish bo'yicha mutaxassislar tomonidan **MRV tizimini o'rmon xo'jaligiga joriy qilish bosqichlari, sohaga tegishli tashkilot va korxonalarining rolini belgilash, mazkur sohalarda issiqxona gazlari emissiyasi va uning yutilishini hisoblash metodologiyalari yuzasidan taqdimot qilindi.**



Shuningdek, har bir hududning iqlim sharoiti va yer unumdorligini chuqur o'rgangan holda **issiqxona gazlari emissiyasini yutish bo'yicha eng mos daraxtlarni ekish va o'rmonlarni ko'paytirish** yuzasidan tajribasini bilan tanishildi.

Bundan tashqari, tomonlar qishloq va o'rmon xo'jaligida issiqxona gazlari emissiyasini hisoblash zamonaviy usullari, xususan, **dronlar va lazer apparatlardan foydalanish imkoniyatlari** hamda natijalarini muhokama qildi.

Tomonlar issiqxona gazlari emissiyalarini qisqartirishda davlat ishtirokidagi korxonalar va xususiy sektor vakillarini jalb qilish, xususan, **atrofqa daraxtlarni ekish orqali emissiyalarni kamaytirishga erishgan korxonalarga uglerod birliklari sertifikatlarini kompensatsiya sifatida berish** imkoniyatlari o'rganildi.

Uchrashuv davomida **suv xo'jaligi sohasida aqlli sug'orish instrumentlarini joriy etish**, xususan, **suvni qayta ishlash orqali sun'iy havzalarni hosil qilish** va undan qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orishda foydalanish tajribalari o'rganildi va O'zbekistonda ushbu instrumentlarni joriy etish imkoniyatlari atroflicha muhokama qilindi.

O'zbekiston delegatsiyasi a'zolari Fransiya taraqqiyot agentligi (AFD) hamda "Expertise France" tomonidan tashkil etilgan **"Monitoring, hisobot va tekshiruv (MRV) tizimini joriy etishda Marokash tajribasini o'rganish" o'quv-dasturi** doirasida Fransiya taraqqiyot agentligining Rabat shahridagi vakillari bilan uchrashdi

Tomonlar ikki mamlakatda iqlim o'zgarishi sohasida AFD bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar, xususan, davlat moliyasini boshqarish tizimiga "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini integratsiyalash doirasida **budjet xarajatlarini "yashil" markirovkalash, "yashil" davlat xaridlarini joriy qilish, "yashil" moliyalashtirish taksonomiyasini ("yashil" mezonlar) joriy qilish** kabi loyihalar bo'yicha o'zaro tajribalar almashishdi.



Uchrashuv davomida ikki mamlakatda yangi joriy etilayotgan loyihalar, jumladan, davlat ishtirokidagi korxonalarining "yashil" iqtisodiyotga o'tishini jadallashtirish, shuningdek, issiqxona gazlari savdosini yo'lga qo'yish mexanizmlari, xususan, **Yevropa Ittifoqining transchegaraviy uglerodni tartibga solish mexanizmi (Carbon border adjustment mechanism – CBAM)** hamda **milliy va xalqaro emissiya savdosi tizimlarini joriy etish** masalalari muhokama qilindi.

Shu bilan birga iqlim o'zgarishi chora-tadbirlarini moliyalashtirish vosita va usullarini rivojlantirish, xususan, **suveren va korporativ "yashil" obligatsiyalar chiqarish**, xususiyl sektorda "yashil" moliyalashtirish oqimlarini rag'batlantirish yuzasidan ikki mamlakat tajribasi muhokama qilindi hamda bu borada hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan istiqbolli yo'nalishlar ko'rib chiqildi.

Bundan tashqari, qishloq va suv xo'jaligi sohalarida iqlim o'zgarishiga moslashish choralari ishlab chiqish, suv resurslaridan oqilona foydalanish (aqli irrigatsiya) hamda yashil barqaror binolarni barpo etish bo'yicha Marokashda AFD ishtirokida muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishildi hamda O'zbekistonda bu borada ustuvorliklardan kelib chiqib, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan loyihalar bo'yicha fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi **“O'zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-213-sonli Qarori** qabul qilindi.

**Mazkur qaror bilan quyidagilar belgilab qo'yildi:**

**1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi milliy shaffoflik tizimining milliy organi** hisoblanib, quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

– Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bilan birgalikda Energetika vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (keyingi o'rinlarda — tarmoq muvofiqlashtiruvchilari) **ishini samarali yo'lga qo'yish hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtirish;**

– **2025-yildan boshlab har 5 yilda Parij bitimi doirasida** iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirni baholash asosida iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish bo'yicha **milliy majburiyatni belgilash;**

– iqtisodiyot, shu jumladan sanoat tarmoqlarida **issiqxona gazlari ajratmalari qisqartirilishini muvofiqlashtirish** va tartibga solish;

– MRV tizimini ishlab chiqish, joriy etish va yuritish, shu jumladan barcha MRV tizimi hisobot elementlarini qo'llab-quvvatlash uchun **onlayn platforma ishlab chiqish va joriy etish;**

– **issiqxona gazlari ajratmalari qisqartirilishining milliy reyestrini joriy etish**, milliy va xalqaro darajada uglerod savdosini muvofiqlashtirish, bunda birinchi navbatda milliy manfaatlarini inobatga olgan holda, xalqaro majburiyatlar bajarilishini ta'minlash.

**2. O'zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o'tish choralari muvofiqlashtirish bo'yicha idoralararo kengash milliy shaffoflik tizimi komissiyasi** sifatida quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklandi:

issiqxona gazlari xatlovi hisobotini tasdiqlash;

xatlov tizimining ichki qoidalarini tasdiqlash va yangilab borish;

issiqxona gazlari ajratmalarini kamaytirish faoliyatini muvofiqlashtirish;

xatlov tizimi ishtirokchilarining salohiyatini oshirish choralari ko'rish.

**3. Milliy shaffoflik tizimi onlayn platformasi ishga tushiriladi** va uning “Yashil” iqtisodiyot onlayn platformasiga integratsiya qilinadi;


**2025-yil 1-yanvarga qadar tajriba-sinov tariqasida** muayyan soha, hudud va korxonalarda **issiqxona gazlari ajratmalari xatlovdan o'tkaziladi.**

Onlayn platformaning faoliyati Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi **“Yashil” iqtisodiyot loyihalari markazi tomonidan muvofiqlashtiriladi.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 800-sonli qarori qabul qilindi.


**Mazkur konsepsiya quyidagilarni qamrab oladi:**

- milliy shaffoflik tizimining maqsadlari va tamoyillari;
- milliy shaffoflik tizimining tashkiliy tuzilishi, milliy shaffoflik tizimi komissiyasi, milliy organi, ishchi guruhi, tarmoq muvofiqlashtiruvchilari hamda kotibiyatining asosiy vazifa va funksiyalari;
- milliy shaffoflik tizimining onlayn platformasi faoliyati va yuritilishi tartibi;
- tizim doirasida tarmoq muvofiqlashtiruvchilari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar tarkibi va ularga qo'yilgan talablar;
- milliy shaffoflik tizimini samarali yo'lga qo'yish maqsadida inson resurslaridan samarali foydalanish va tegishli davlat idoralardan mutaxassislarni jalb qilish choralari;
- milliy shaffoflik tizimini joriy etish bosqichlari.



# Milliy shaffoflik tizimining tuzilmasi

O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish choralari muvofiqlashtirish bo'yicha Idoralararo kengash



**BTR** – Ikki yillik shaffoflik hisoboti (Biennial Transparency Report)

**Ekologiya vazirligi** – Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi

**Investitsiya vazirligi** – Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi

**Iqlim markazi** – Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Iqlim o'zgarishi milliy markazi

**Yashil iqtisodiyot markazi** – Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi "Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi" loyiha ofisi

**IPPU** – Sanoat jarayonlari va mahsulotdan foydalanish

**NAP** – Milliy moslashish rejasi (National Adaptation Plan)

**NDC** – Milliy miqyosda belgilangan hissa (National Determined Contribution)

**UNFCCC** – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha hadli konvensiyasi

**O'zgidromet** – Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati agentligi

Seminarda **70 dan ortiq vazirlik, idora va tashkilotlarning** issiqxona gazlari ajratmalari bo'yicha MRV tizimi doirasida ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tekshirish va topshirish uchun sohaga taalluqli tashkiliy mas'ul bo'lim mutaxassislari ishtirok etishdi.

Seminar-treningdan ko'zlangan asosiy maqsad Milliy shaffoflik tizimi doirasida qamrab olinishi kutilayotgan vazirlik, idora hamda tashkilotlarning tegishli xodim va mutaxassislarni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy Konvensiyasi talablari asosida iqlim o'zgarishiga qarshi chora-tadbirlarning monitoringini shaffof yo'lga qo'yish maqsadida yaratilgan yangi institutsional tizim bilan yaqindan tanishtirishdan iborat.

 <p>MINISTRY OF ECONOMY AND FINANCE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN</p>	 <p>EXPERTISE FRANCE GROUPE AFD</p>	 <p>GREEN ECONOMY CENTER</p>	 <p>CITEPA</p>
<p><b>1-mavzu</b></p> <ul style="list-style-type: none"><li>• <u>Shaffoflik bo'yicha tarmoqlararo jihatlar: Issiqxona gazlari inventarizatsiyasi, Milliy miqyosda belgilangan hissani (NDC) kuzatish nuqtai nazaridan modalliklar, protseduralar va yo'riqnomalar (MPG) asosida yangi majburiyatlar</u></li></ul> <p><b>Boshlanish vaqti: 14:30</b> (Toshkent vaqti bilan)</p>	<p><b>Topic 1</b></p> <ul style="list-style-type: none"><li>• Cross-sectoral aspects on Transparency: what are the new obligations based on MPGs in terms of GHG I, NDC tracking, etc.</li></ul> <p><b>Starting time: 2:30 pm</b> (in Tashkent time)</p>		
<p>Trening bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni quyidagi telegram havolasi yoki QR-kodni skaner qilish orqali olishingiz mumkin:</p>  <p><a href="https://t.me/+q3x5sQ8aHFZiNjky">https://t.me/+q3x5sQ8aHFZiNjky</a></p>	<p>Trening ingliz tilida olib boriladi va rus tilida tarjima uchun ZOOMda alohida kanal mavjud. Tarjimani eshitish uchun "Tarjima" (Interpretation) tugmasini bosib, kerakli tilni tanlang:</p> 		

Seminar ma'ruzalari Fransiyaning CITEPA tashkilotining malakali ekspertlari tomonidan olib borildi. Onlayn treninglar davomida iqlim o'zgarishi sohasidagi xalqaro hisobotlarning yangilangan mezonlari, issiqxona gazlari ajratmalari bo'yicha hisobotni Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo panel yo'riqnoma va ko'rsatmalari asosida tayyorlash, shuningdek, energetika, sanoat, qishloq xo'jaligi va chiqindilarni qayta ishlash tarmoqlarida issiqxona gazlari ajratmalarini qisqartirish usullari kabi mavzular qamrab olinishi ko'zda tutilgan.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Fransiya taraqqiyot agentligi hamda vazirlik huzuridagi "Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi" bilan hamkorlikda **"Issiqxona gazlari ajratmalari inventarizatsiyasi va MRV onlayn platformasi"** mavzusida **17 kunlik seminar-treninglar** tashkil etildi.

Seminarda **30 dan ortiq vazirlik, idora va tashkilotlarning** issiqxona gazlari ajratmalari bo'yicha MRV tizimi doirasida ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tekshirish va topshirish uchun sohaga taalluqli tashkiliy mas'ul bo'lim mutaxassislari ishtirok etdi.



Tadbir Milliy shaffoflik tizimi doirasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy Konvensiyasi talablari asosida iqlim o'zgarishiga qarshi chora-tadbirlarning monitoringini shaffof yo'lga qo'yish maqsadida yaratilgan yangi institutsional tizim bo'yicha nazariy bilimlar va amaliy mashg'ulotlarni qamrab oladi.

Seminar ma'ruzalari Fransiyaning CITEPA tashkilotining malakali ekspertlari tomonidan olib borildi. Treninglar davomida iqlim o'zgarishi sohasidagi issiqxona gazlari ajratmalari bo'yicha hisobotni Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo panel yo'riqnoma va ko'rsatmalari asosida tayyorlash, shuningdek, energetika, sanoat, qishloq xo'jaligi va chiqindilarni qayta ishlash tarmoqlarida issiqxona gazlari ajratmalarini qisqartirish usullari kabi mavzular qamrab olinishi ko'zda tutilgan.

Hozirda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Fransiya taraqqiyot agentligi (AFD), Osiyo taraqqiyot banki (ADB) va Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) bilan hamkorlikda **Yevropa Ittifoqining Transchegaraviy uglerodni tartibga solish mexanizmiga (Carbon Border Adjustment Mechanism – CBAM) tayyorgalikni oshirish** bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Fransiya taraqqiyot agentligi (AFD) hamda "Expertise France" tashkiloti bilan birgalikda **"Transchegaraviy uglerodni tartibga solish mexanizmi (CBAM): xavflar va imkoniyatlar"** mavzusida vazirlik, idora, uyushma va eksportchi tashkilotlar mutaxassislarning bilim va salohiyatini oshirish maqsadida onlayn vebinar tashkil etildi.


**Ma'lumot uchun:** Yevropa Ittifoqining Transchegaraviy uglerodni tartibga solish mexanizmi (Carbon Border Adjustment Mechanism – CBAM) Yevropa Ittifoqiga eksport qilinadigan uglerod emissiyali mahsulotlarga (ishlab chiqarish jarayonida ko'p miqdorda issiqxona gazlari emissiyasi chiqariladigan mahsulotlar) uglerod solig'i undirish va Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lmagan mamlakatlarda toza sanoat ishlab chiqarishni rag'batlantirish vositasi hisoblanib, 2026-yildan boshlab kuchga kiradi.




Vebinardan asosiy maqsad xalqaro tashkilotlar vakillari va xorijiy ekspertlar ishtirokida Yevropa Ittifoqi tomonidan joriy qilingan Transchegaraviy uglerodni tartibga solish mexanizmi (CBAM), uning milliy iqtisodiyot, xususan, eksport salohiyatiga ta'siri hamda

iqtisodiyot tarmoqlarining unga tayyorligini oshirish masalalarini muhokama qilishdan iborat.

### YEIning CBAM amalga oshirilishi xronologiyasi



### YeIning Transchegaraviy uglerodni tartibga solish mexanizmi (CBAM) sxemasi



## CBAM mahsulotlari



Sement



Temir-po'lat



Aluminiy



O'g'it



Elektr energiya



Vodorod

## CBAM mexanizmiga O'zbekistonning tayyorligini ta'minlash choralari

- Idoralararo ishchi guruhni tashkil etish
- CBAM mexanizm ta'sirini baholash
- YeIning CBAMga tayyorgarlikni ta'minlash bo'yicha yo'l xaritasini ishlab chiqish
- Uglerod solig'i va milliy uglerod birliklari savdo tizimini joriy qilish
- YeIning grant mablag'larni jalb qilish va mahallik verifikatorlarni tayyorlash

Mazkur vebinarda **30 dan ortiq xalqaro rivojlanish bo'yicha hamkor tashkilotlar, mahalliy vazirlik, idora va uyushmalar vakillari** ishtirok etdi.

Vebinar davomida Fransiya taraqqiyot agentligi ekspertlari tomonidan CBAMning asosiy tushunchalari va mexanizmlari, qamrab olingan tarmoqlar va mahsulotlar, O'zbekistonlik eksportchilarga bo'lgan ta'siri bo'yicha taqdimot qilindi.

Shuningdek, Fransiya taraqqiyot agentligi, Osiyo taraqqiyot banki hamda Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati ekspertlari tomonidan Marokash, Vyetnam, Indoneziya va Qozog'iston kabi davlatlarning CBAMga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha xalqaro amaliyotlari hamda ijobiy tajribalari yuzasidan tahliliy taqdimotlar qilindi.

Vebinar so'ngida, ishtirokchilar o'zining qiziqtirgan savollariga xalqaro ekspertlar tomonidan atroflicha javob olishdi.

Ma'lumki, bugungi kunda iqlim o'zgarishi yagona davlat yoki mintaqa bilan cheklanib qolmaydi – u butun dunyoga ta'sir qiladi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston ham boshqa mamlakatlar bilan o'zaro hamkorlik qilib, umumiy strategiyalar ishlab chiqish zaruriyatini inobatga olib, bir qator davlatlar bilan iqlim o'zgarishi va yashil iqtisodiyot sohalarida strategik hamkorlikni yo'lga qo'ymoqda.

Xususan, 2022-yilning oktabr oyida **O'zbekiston va Yaponiya hukumatlari o'rtasida** iqtisodiyot tarmoqlarida issiqxona gazi emissiyasini kamaytirishga qaratilgan zamonaviy "yashil" texnologiyalarni jalb qilishni ko'zda tutuvchi **Qo'shma moliyalash mexanizmi (Joint Crediting Mechanism - JCM) bo'yicha Memorandum imzolandi.**

**Ma'lumot uchun:** *Qo'shma moliyalash mexanizmi – hamkor mamlakatlarda JCM loyihalarini amalga natijasida qisqartirilgan issiqxona gazi emissiyalarining o'zaro kelishilgan qismini olib ketish evaziga loyiha turi va shartlariga qarab, Yaponiyaning zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish va loyiha xarajatlarining bir qismini qoplab berish bo'yicha hamkorlik tizimi hisoblanadi.*

Mazkur memorandumga asosan O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida **10 nafar** davlat vakillaridan iborat bo'lgan **Qo'shma kengash tashkil etildi.**

**Qo'shma kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

- issiqxona gazi emissiyalarini qisqartirishga qaratilgan loyihalarini amalga oshirish tartib-qoidalari va mexanizmlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;*
- JCM loyihalarini ishlab chiqilishi va ularni amalga oshirilishini umumiy muvofiqlashtirish, loyihalar doirasida ekologik jihatdan afzal, shu jumladan energiya samarador va resurslarni tejovchi, chiqindisiz, atrof-muhitga salbiy ta'siri kamaytirilgan Yaponiyaning innovatsion texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu yo'nalishda mahalliy mutaxassislar salohiyatini oshirish bo'yicha hamkorlik qilishni qo'llab quvvatlash;*
- tanlab olingan loyihalarni hukumatlar o'rtasida kelishilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazish va loyihalarni amalga oshirish natijasida qisqartirilgan issiqxona gazlarini ishtirokchilar o'rtasida taqsimotini amalga oshirish.*


**JCM loyihalarini amalga oshirish tartibi:** loyiha hamkor davlat (O'zbekiston)dagi korxonalar/tashkilot mablag'lari hisobidan Yaponiya kompaniyasi texnologiyasi jalb qilingan xolda amalga oshiriladi va loyiha natijasida qisqartirilgan issiqxona gazi emissiyalarining tomonlar o'rtasida kelishilgan qismini Yaponiyaga o'tkazish evaziga xarajatlarining bir qismi **(50 foizgacha) 3-5 yil davomida** bo'lib-bo'lib qoplab beriladi.

2024-yil 27–29-fevral kunlari Tokio shahrida bo‘lib o‘tgan Qo‘shma moliyalash mexanizmi (Joint Crediting Mechanism – JCM) doirasida Global hamkorlik uchrashuvida (JCM Global Partnership Meeting) Iqtisodiyot va moliya vazirligining mas‘ul xodimlari ishtirok etdi. Ushbu uchrashuv Yaponiyaning JCM mexanizmi doirasidagi davlatlar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda ularning salohiyatini oshirish maqsadida Yaponiyaning Atrof-muhit vazirligi tomonidan tashkil etildi.



Uchrashuvda Yaponiyaning Atrof-muhit vazirligi vakillari tomonidan Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Parij bitimi 6-moddasining asosiy maqsadlari va uning asosida tayyorlangan Yaponiyaning yillik hisobot loyihasi hamda uni ishlab chiqishdagi tajribasi bo‘yicha taqdimotlar o‘tkazildi. Shuningdek, tomonlarning 28-konferensiyasida (COP28) 6-modda bo‘yicha ko‘tarilgan masalalar yuzasidan muhokamalar bo‘lib o‘tdi.

Shuningdek, tadbirda hamkor davlatlardan Tailand, Keniya, Mo‘g‘uliston va Bangladesh hamda boshqa davlat vakillari JCM mexanizmini joriy qilish hamda loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha o‘z tajriba va bilimlari bilan bo‘lishdi.



Bugungi kunda Qo‘shma kengash tomonidan JCM mexanizmi doirasida ishiqxonaga gazlarini qisqartirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish tartibi va qoidalari ishlab chiqildi.



2025-yil 26-fevralda Toshkent shahrida Iqtisodiyot va moliya vazirligida **Qo'shma kengashning ilk rasmiy yig'ilishi o'tkazildi**. Yig'ilish davomida **Qo'shma kengash faoliyatini olib borish tartibi**, vazifa va funksiyalari kelishib olindi. Shuningdek, JCM mexanizmi doirasida issiqxona gazlarini qisqartirish va xalqaro uglerod savdosiga yo'naltirishga qaratilgan **loyihalarni amalga oshirish tartibi va qoidalari ko'rib chiqilib, Qo'shma kengash tomonidan tasdiqlandi**.



Mazkur tartib va qoidalar JCM loyihalarini ishlab chiqish, loyiha-oldi hujjatlarini tayyorlash va Qo'shma kengashga kiritish, validatsiya va verifikatsiya jarayonlarini amalga oshirish hamda Qo'shma kengash tomonidan ko'rib chiqish tartiblarini belgilaydi.

Bunda tashqari, 2025-yil 27-fevral kunida Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Yaponiya Atrof-muhit vazirligi, Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi hamda Yaponiyaning Atrof-muhit bo'yicha xalqaro hamkorlik markazi bilan hamkorlikda Toshkent shahrida **"O'zbekistonda Qo'shma moliyalash mexanizmi (Joint Crediting Mechanism - JCM) imkoniyatlari"** mavzusida seminar bo'lib o'tdi.



Mazkur seminarda Yaponiya Hukumati, Yaponiyaning qayta tiklanuvchi energiya hamda toza texnologiyalarni ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi kompaniyalari, shuningdek, O'zbekistonning mahalliy vazirlik va idoralari, yirik sanoat korxonalarini, energetika tizim tashkilotlari, xususi sektor vakillari

va ilmiy-tadqiqot institutlarining **150 dan ortiq vakillari ishtirok etdi.**

Ushbu seminardan asosiy maqsad JCM mexanizmi orqali tadbirkorlarni yashil iqtisodiyotga o'tishda qo'llab-quvvatlash, Yaponiyaning ilg'or yashil texnologiyalarini jalb etish hamda **Yapon va O'zbek kompaniyalari o'rtasida B2B muzokaralarni o'tkazish imkoniyatini yaratishdir.**



*Seminar davomida, Yaponiyaning JCM Jamg'armasi, JCMning asosiy ishlash sxemasi, mahalliy tadbirkorlar uchun JCM loyahasini ishlab chiqish tartibi, JCM doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar va xorijiy tajribalar to'g'risida taqdimotlar qilindi. Xususan:*

- O'zbekistonning kam uglerodli rivojlanish siyosati va JCM loyahasini ishlab chiqish uchun potensial sektorlar;*
- O'zbekistonda Ixtiyoriy uglerod bozori doirasida amalga oshirilayotgan ishlar va loyihalar;*
- JCMning asosiy sxemasi va so'nggi o'zgarishlar;*
- Mahalliy hamkorlar uchun JCM loyahasini ishlab chiqishda asosiy jihatlar;*
- Qishloq xo'jaligi yer maydonlarida quyosh panellarini o'rnatish (agrivoltaika) bo'yicha yetakchi innovatsiyalar;*
- Markazlashgan isitish va sovutish tizimlarida issiqlik nasoslaridan foydalanish va boshqa yo'nalishlarda taqdimotlar asosida batafsil tushuntirishlar berildi.*

2023-yilning iyun oyida Toshkent shahrida **O'zbekiston Respublikasi va Janubiy Koreya Hukumatlari o'rtasida Iqlim o'zgarishi bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi Hadli bitim** imzolandi.

Ushbu bitim issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga moslashish chora-tadbirlarini kuchaytirishga qaratilgan. Shuningdek, bitim doirasida iqlim o'zgarishi bo'yicha Qo'shma kengash tashkil etilib, ushbu kengash barcha tadbirlarni muvofiqlashtirish va amalga oshirishga mas'ul etib belgilangan.

Bugungi kunda, Koreya kompaniyalari bilan bir qator loyihalarni amalga oshirish ishlari boshlangan. Xususan, Korea Investment & Security Co.,Ltd hamda Koreya iqlim o'zgarishi instituti (Korean Institute of Climate Change - KICC) bilan **hamkorlikda Qoraqalpog'iston Respublikasida qazilma yoqiligidan foydalanishni chiqindilardan (qayta ishlangan qizilmiya ildizidan) tayyorlanadigan bio-paletlarga almashtirish natijasida qisqartirilgan issiqxona gazlarini savdosini tashkil qilish loyihasi** amalga oshirilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan loyiha natijasida **10 yil** davomida **108 ming tonna CO2 ekv.** issiqxona gazlari emissiyasi qisqartiriladi.

Loyiha jarayonida mazkur hududlarda chiqindilarni qayta ishlab, bio-palet ishlab chiqarish zavodlari quriladi va mahalliy aholi ish bilan ta'minlanadi hamda qisqartirilgan issiqxona gazlarining bir qismi mamlakatning Parij bitimi doirasida olingan majburiyatlarini (NDC) qoplashga yo'naltiriladi.

Bundan tashqari, 2024-yilning 14-noyabr kuni Boku shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha **Tomonlar konferensiyasi 29-sessiyasi (COP29) doirasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Global yashil o'sish instituti (GGGI) o'rtasida KOICAning 6,5 mln. AQSh dollari** miqdoridagi grant mablag'larini jalb qilgan holda yashil iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan **"Yashil iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"**gi doiraviy kelishuv imzolandi.

Mazkur kelishuv hukumatga iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash, ayniqsa, yashil investitsiyalarni safarbar qilish, aqlli va iqlimga moslashuvchan qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, strategik ekologik baholash, barqaror va yashil moliyalashtirish, karbon bozorlarni rivojlantirishda ko'mak beradi.

Germaniya va O'zbekiston o'rtasida bo'lib o'tgan muzokaralar natijasida 2024-yil 15-sentabrda **O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Germaniya Federal Respublikasi Iqtisodiyot va iqlim bo'yicha federal vazirligi o'rtasida "Parij bitimi 6-moddasi doirasida hamkorlik bo'yicha Anglashuv Memorandumi"** imzolandi.

Mazkur Memorandum 2024-yil sentyabr oyida Germaniya Federal Kanslerining O'zbekistonga oliy darajadagi tashrifga tayyorgarlik ko'rish doirasida vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan.



Ushbu Memorandumning maqsadi **issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish hamda iqlim o'zgarishining salbiy ta'siriga moslashish bo'yicha salohiyatni mustahkamlash** va shu orqali kam uglerodli va iqlimga chidamli iqtisodiyotga va yashil o'sishga o'tish yo'nalishlaridagi hamkorlikni teng huquqlilik va o'zaro manfaatlilik asosida mustahkamlashdan iborat.

Hamkorlik doirasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tegishli vazirliklar va idoralardan tashkil topgan ishchi guruh shakllantirilib, hozirda ishchi guruh bilan birga Germaniyaning texnik ko'magini jalb qilgan holda **kam uglerodli iqtisodiyot sohasida mutaxassislar salohiyatini oshirish bo'yicha Kompleks dastur** ishlab chiqilmoqda.

Ko'plab rivojlanayotgan davlatlarda yashil texnologiyalarni joriy etishda qo'shimcha resurs va malakali mutaxassislarga talab yuqori bo'lib, xalqaro hamkorlik orqali O'zbekiston kabi davlatlar ilg'or texnologiyalar, tajriba va investitsiyalarni jalb qilishi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, iqlim o'zgarishi oziq-ovqat yetishmovchiligi, suv tanqisligi va ekologik migratsiya kabi muammolarga sabab bo'ladi. Bu esa mintaqaviy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Markaziy Osiyo davlatlari suv resurslarini birgalikda boshqarish yoki yashil energetika tarmog'ini rivojlantirish orqali mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashi mumkin.

Shuningdek, boshqa mamlakatlar bilan xalqaro uglerod bozorlari bo'yicha hamkorlik orqali rivojlanayotgan mamlakatlarda issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish orqali iqtisodiy daromad olish imkoniyatini yaratiladi. Bundan tashqari, iqlim masalalarida faol ishtirok etish davlatning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini oshiradi. O'zbekiston COP sammitlarida qatnashib, yashil rivojlanish tashabbuslarini ilgari surmoqda va bu orqali o'zining global siyosiy mavqeini mustahkamlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasi 2024-yil 11-22-noyabr kunlari Ozarbayjonning Boku shahrida bo'lib o'tgan **Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi Tomonlar Konferensiyasining 29-sessiyasida (COP-29)** ishtirok etdi.

Bugungi kunda O'zbekiston iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida xalqaro hamkorlikni faollashtirmoqda. Bu sa'y-harakatlar qayta tiklanadigan energiya, barqaror rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Ushbu sa'y-harakatlarni yanada jadallashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi har yili bo'lib o'tayotgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi Tomonlar Konferensiyasida o'zining faol ishtirokini ta'minlab kelmoqda.



**Ma'lumot uchun:** Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi (UNFCCC) 1992 yil iyun oyida Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan Yer sammitida insonning iqlim tizimiga xavfli aralashuvining oldini olish uchun imzolangan kelishuvdir.

Tomonlar Konferensiyasi iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyaning bajarilishini nazorat qiluvchi oliy qaror chiqaruvchi organ hisoblanadi. Konvensiyaga 198 ta davlat a'zo. Agar tomonlar boshqacha kelishuvga erishmasalar, COP har yili o'tkaziladi.

Bokuda bo'lib o'tadigan COP-29 tadbirlari davomida 100 dan ortiq davlat va hukumat rahbarlari ishtirok etishi kutilmoqda. Shuningdek, 28 000 dan ortiq mehmonlar, xususan nodavlat notijorat tashkilotlari, mamlakatlar va yetakchi xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlarning (Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropa Ittifoqi, GIZ va boshqalar) yuqori darajadagi rahbarlari ishtirok etadi.

Ushbu konferensiyada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, nutq so'zladi.

*"Biz Ozarbayjonning zamonaviy iqlim tahdidlariga qarshi kurashish yo'lida xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo'yicha faol sa'y-harakatlarini to'liq qo'llab-quvvatlaymiz".*

*"Iqlim o'zgarishlari bugungi kunda asosiy global tahdidga aylanib bormoqda, geosiyosiy ziddiyatlar kuchayishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, kambag'allikka qarshi kurash, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi, suv va resurslardan foydalanish muammolarini kuchaytirmoqda"*

*"Bularning asoratlarini Markaziy Osiyoda o'tkir his qilmoqdamiz. Iqlim muammolari aholimizning turmush sifatini oshirish va milliy taraqqiyot strategiyalarini ro'yobga chiqarishda yangi to'siqqa aylanmoqda" , — deya qayd etdi davlat rahbari.*



Prezident Parij bitimi doirasidagi bosh maqsad — mintaqada havo haroratining jadal o'sishiga yo'l qo'ymaslik va joriy yuz yillikda **1,5-2 gradus** atrofida saqlab qolish ekanini eslatib o'tdi.

Prezident ta'kidlashicha, O'zbekiston 2030-yilgacha havoga issiqxona gazlari chiqarilishini **35 foizga** kamaytirishni reja qilgan. "Bu majburiyatni 2050-yilga qadar yanada kengaytirishga tayyormiz", — deya qo'shimcha qildi prezident.

*"Yashil" energetika ulushini **40 foizgacha** oshiramiz. Elektromobil va "yashil" vodorod klasterlari, quyosh va shamol generatsiya xablarini yaratayapmiz. "Yashil makon" dasturimiz doirasida ko'kalamzor hududlarni keskin ko'paytirayapmiz. Qo'shni mamlakatlar bilan Mintaqaviy iqlim strategiyasini hayotga tatbiq qilmoqdamiz. Shu kunlari Yevropaga "yashil" energiya yetkazish bo'yicha ko'p tomonlama bitimni imzolaymiz", — deya qayd etdi.*

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston global iqlim o'zgarishlari oqibatlarini birgalikda bartaraf etishda quyidagi takliflarni ilgari surishini aytdi:

Iqlim xatarlarini aniqlash uchun yetakchi davlatlar va xalqaro institutlarning texnik ko'magini kengaytirish. Prezident bu borada Iqlim tufayli yo'qotish va zararlarni baholash bo'yicha xalqaro markaz ta'sis etishni taklif qildi.

*Transchegaraviy suv resurslari ifloslanishining oldini olish. "Mintaqamiz misolida aytib o'tmoqchimanki, bir avlod ko'z o'ngida Orol dengizining butunlay yo'qolishi sayyoramiz miqyosidagi fojiga aylandi. Shu o'rinda biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha majburiyatlar to'g'risidagi deklaratsiyani ishlab chiqish tarafdorimiz", — deya qayd etdi davlat rahbari.*

*Genetik resurslarning mintaqaviy bankini ishga tushirish. "Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan davlatlar uchun yurtimizda Birlashgan Millatlar Tashkilotining innovatsion agrosanoat xabini yaratish tashabbusini ilgari suramiz", — dedi Shavkat Mirziyoyev.*

Jahon iqlim poytaxtlari alyansini tashkil etish. Bu iqlim o'zgarishlaridan zarar ko'rayotgan megapolis va shaharlarning barqaror rivojlanishi bo'yicha ilg'or bilim va amaliyotlar transferiga xizmat qiladi. Shavkat Mirziyoyev uning birinchi forumini Toshkentda o'tkazishni taklif qildi.

Shavkat Mirziyoyev ishtirokchilarni kelgusi yili 15-may — Xalqaro iqlim kunida Orolbo'yi mintaqasida o'tkaziladigan Raqamli "yashil" tashabbuslar global yoshlar festivaliga taklif qildi.

“O‘zbekiston umumiy farovonlik va “yashil” taraqqiyot yo‘lida ochiq muloqot va sheriklikka doim tayyor ekanini yana bir bor ta’kidlayman”, — deya nutqini tugatdi Shavkat Mirziyoyev.

2024-yil 12-noyabr kuni Iqtisodiyot va moliya vazirligi delegatsiyasi Ozarbayjonning Boku shahrida bo‘lib o‘tayotgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hadli konvensiyasi doirasidagi Tomonlar konferensiyasining 29-sessiyasi (COP29) doirasida Jahon bankining “Rivojlanish moliya institutlari orqali iqlimni moliyalashtirishni boshqarish” tadbirida ishtirok etdi.



Mazkur tadbirda Jahon banki guruhi Kafolat Platformasi (World Bank Group Guarantee Platform) iqlim bo‘yicha chora-tadbirlarni keng miqyosda moliyalashtirish uchun ko‘p tomonlama rivojlanish banklari, mintaqaviy rivojlanish banklari va hukumatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish muhimligi aytib o‘tildi.

Tadbirda ishtirokchilar iqlim moliyasi, yashil investitsiya va obligatsiyalar kabi moliyaviy instrumentlardan foydalanish orqali yashil iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish bo‘yicha fikr almashishdi.

Bundan tashqari, rivojlanish bo‘yicha hamkor tashkilotlar va xalqaro moliyaviy institutlar rahbarlari bilan uchrashuvlar o‘tkazib, yashil iqtisodiyotga o‘tish va yashil o‘sish yo‘nalishida amalga oshiriladigan loyihalar bo‘yicha bir qator kelishuv va bitimlar imzolandi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki o'rtasida **“O‘zbekiston Respublikasining dekarbonizatsiya va yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini ilgari surishda hamkorlik” dasturi** doirasida davlat kafolatisiz **200 mln. yevro** miqdoridagi imtiyozli kredit mablag‘larini jalb qilish bo‘yicha memorandum imzolandi

2024-yil 13-noyabr kuni COP-29 Konferensiyasi doirasida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan uchrashuvda mazkur bank ko‘magida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan va istiqboldagi loyihalar, xususan, mamlakatni uzoq muddatli dekarbonizatsiya strategiyasi, yashil shaharlarni barpo etish, metan emissiyalarini qisqartirish, turar joylar hamda xususiy sektorda issiqlik nasoslarini o‘rnatish hamda isitish bo‘yicha mamlakatning alohida strategiyasini ishlab chiqish masalalari muhokama qilindi.

#### **Hamkorlik qamrovi:**

*a) O‘zbekistonda moliya sektorini yashillashtirish bo‘yicha hamkorlik qilish, shu jumladan:*

*– Xalqaro iqlim fondlari ko‘magida iqlimga mos qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish tizimini ishlab chiqish va joriy etish orqali qishloq xo‘jaligi sektorining iqlimga chidamliligini va iqlimga moslashuvini kuchaytirish;*

*– moliya sektorini tartibga soluvchi vakolatli organ va manfaatdor vazirliklar bilan yaqin hamkorlikda moliya institutlari uchun iqlimga o‘tishni rejalashtirish bo‘yicha kompleks dasturni amalga oshirish orqali moliya sektorida transformativ harakatlarni qo‘llab-quvvatlash;*

*– Iqlim va atrof-muhitni muhofaza qilish jamg‘armalarini qo‘llab-quvvatlash orqali kichik va o‘rta biznesga maxsus moliyaviy resurslar va texnologiyalar taqdim etish orqali iqlimni yumshatish va moslashish milliy maqsadlariga hissa qo‘shish;*

*– **200 mln. AQSh dollari**gacha bo‘lgan miqdorda moliyaviy tizimni yashillashtirish bo‘yicha maxsus moliyaviy dasturni amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash uchun moliyaviy mexanizmlarni o‘rganish;*

*b) chiqindi va suv sektorlarida metan emissiyasini kamaytirish bo‘yicha investitsiya dasturini ishlab chiqish;*

*d) Suv, oziq-ovqat va energiya uchun “Nexus” bo‘yicha mamlakat platformasini amalga oshirish doirasida hamkorlik qilish.*

Uchrashuv yakunida Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki o'rtasida "O'zbekiston Respublikasining dekarbonizatsiya va yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini ilgari surishda hamkorlik" dasturi doirasida davlat kafolatisiz **200 mln. yevro** miqdoridagi imtiyozli kredit mablag'larini jalb qilish bo'yicha memorandum imzolandi.



Mazkur loyiha 2025-2027-yillar uchun mo'ljallangan bo'lib, undan asosiy maqsad O'zbekistonning Parij bitimi bo'yicha o'z majburiyatlariga muvofiq, O'zbekistonning uzoq muddatli kam uglerodli rivojlanish va iqlimga chidamli strategiyasini amalga oshirishda o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi **"Energetika sektorini rivojlantirish (2-kichik dasturi)"**ni qo'shimcha moliyalashtirish uchun Fransiya taraqqiyot agentligi bilan **100 mln. yevro** miqdorida kredit ajratish kelishuvi imzolandi.

2024-yil 14-noyabr kuni Fransiya taraqqiyot agentligi (AFD) bosh direktori Remi Riu bilan uchrashuvda issiqxona gazlarini qisqartirish sohasida olib borilayotgan islohotlar, Fransiyaning CITEPA kompaniyasi ko'magida joriy etilayotgan monitoring, hisobot berish va verifikatsiya (MRV) tizimi, yashil urbanizatsiya, barqaror infratuzilma barpo etish, suv resurslaridan samarali foydalanish, o'rmonlashtirish, turizm va muzeylarni rivojlantirishda salohiyatni oshirish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuvda Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi "Energiya-iqlim (2-bosqich)" dasturi doirasida 2024-yilda Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish uchun **100 mln. yevro** miqdoridagi qarz mablag'larni jalb qilish bo'yicha Fransiya taraqqiyot agentligi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida qarz bitimi imzolandi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Barqaror rivojlanish yechimlari markazi o'rtasida **200 ming dollar** miqdoridagi grant mablag'larini jalb qilgan holda **"O'zbekistonda barcha darajadagi Barqaror rivojlanish maqsadlarini uzoq muddatli monitoring qilish salohiyatini mustahkamlash bo'yicha hamkorlik memorandumini"** imzolandi.

Konferensiya doirasida Kolumbiya Universiteti professori va Barqaror rivojlanish yechimlari markazi (SDSN) direktori Djeffri Saks bilan uchrashuvda O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG)ga erishish borasida olib borilayotgan islohotlar, respublikaning barqaror rivojlanish maqsadlari global reytingidagi o'rnini yaxshilash, mamlakatimizda Barqaror rivojlanish yechimlari markazi filialini ochish masalalari muhokama qilindi.



Uchrashuv yakunlari bo'yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Barqaror rivojlanish yechimlari markazi o'rtasida "O'zbekistonda barcha darajadagi Barqaror rivojlanish maqsadlarini uzoq muddatli monitoring qilish salohiyatini mustahkamlash bo'yicha hamkorlik memorandumini"

imzolanib, mazkur dasturga Fransiya taraqqiyot agentligining **200 ming dollar** miqdoridagi grant mablag'larini jalb qilishga kelishildi.

#### ***Hamkorlik qamrovi:***

– 2025-2026 yillarda SDSNning xalqaro ekspertlari ishtirokida mamlakatimizning barcha hududlarida (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) BRMga erishish holati hamda mavjud kamchiliklar yuzasidan submilliy hisobotni ishlab chiqish loyhasini amalga oshirish;

– SDSN bilan mustahkam aloqalar o'rnatish, Indeksdagi O'zbekiston o'rnini yaxshilash hamda BRMga erishish borasida olib borilayotgan islohotlarni to'laqonli aks ettirish maqsadida Toshkentdagi Vestminster xalqaro universitetida tashkilot tarmog'iga kiruvchi ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish;

**Ma'lumot uchun:** SDSN dunyo bo'yicha **42 ta** milliy va **13 ta** hududiy tarmoqlarni o'z ichiga oladi va tashkil etiladigan ilmiy-tadqiqot markazi BRM reytingi uchun statistik ma'lumotlar bazasini shakllantiruvchi tarmoqlar bilan hamkorlikda mamlakat ko'rsatkichlarini o'z vaqtida ishlab chiqilishini tahlil qilish hamda portalga joylashtirishda mustahkam tezkor aloqa o'rnatish uchun xizmat qiladi.

– Hududlarning barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalari hamda ularga erishish bo'yicha maqsadli indikatorlar borasidagi tushuncha va ko'nikmalari oshiriladi.

Ushbu loyihaning asosiy maqsadi O'zbekiston va SDSN tashkiloti bilan mustahkam aloqalarni o'rnatish, SDSNning xalqaro ekspertlari ishtirokida mamlakatimizning barcha hududlarida (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish holati hamda mavjud kamchiliklar yuzasidan submilliy hisobotni ishlab chiqish, BRM reytingidagi O'zbekiston o'rnini yaxshilashdir.

2024-yil 14-noyabr kuni Iqtisodiyot va moliya vazirligi delegatsiyasi Jahon bankining Energetika va qazib olish bo'yicha global amaliyot departamenti Global direktori Demetrios Papatnasiu, Tashqi ishlar bo'yicha katta mutaxassis Yann Doignon Sirven bilan uchrashdi.



Uchrashuvdan ko'zlangan asosiy maqsad o'zaro hamkorlik doirasida amaldagi va kelgusidagi loyihalar, shuningdek, O'zbekistonda Jahon bankining texnik ko'magida amalga oshirilayotgan tahliliy tadqiqotlar muhokama qilindi.

Ushbu loyiha va tadqiqotlar O'zbekistonda energetika sektorida metan emissiyasini sezilarli darajada kamaytirish, neft va gaz sohasidagi davlat korxonalarining aktivlarini xalqaro gaz sanoatidagi ilg'or tajribalar asosida boshqarish salohiyatini yanada mustahkamlashga qaratilgan. Loyihadan kutilayotgan natija sizib chiqayotgan gazlarni tuzatish orqali metan emissiyasini sezilarli darajada kamaytirishdir.

Muzokaralar so'ngida, tomonlar O'zbekistonda energetika sektorida metan emissiyasini kamaytirish sohasida o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida kelgusida o'zaro hamkorlik kelishuvini imzolashga kelishib oldi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (UNDP), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (UNECE) va Xalqaro Mehnat tashkiloti (ILO) bilan qiymati **400 ming AQSh dollari** miqdoridagi **“O'zbekistonda adolatli energiyaga o'tishga ko'maklashish” dasturi** bo'yicha hamkorlik qilish niyati to'g'risidagi bayonotni imzolandi.

COP-29 doirasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi delegatsiyasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining Istanbul mintaqaviy markazi menejeri Steliana Nedera, O'zbekistondagi hamkorlik bo'yicha mutaxassisi Rusyan Mamiit bilan uchrashdi.



Uchrashuvda Yashil va inklyuziv o'sishga erishish yo'lidagi muhim qadamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (UNDP), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (UNECE) va Xalqaro Mehnat tashkiloti (ILO) bilan **“O'zbekistonda adolatli energiyaga o'tishga ko'maklashish” dasturi** bo'yicha hamkorlik qilish niyati to'g'risidagi bayonoti imzolandi.

Mazkur bayonot doirasida ushbu sohalardagi hamkorlikni amalga oshirish uchun jami **400 ming AQSh dollari** miqdoridagi moliyaviy mablag'lar jalb qilinadi.

Ushbu hamkorlik O'zbekistonning energiyaga adolatli va inklyuziv o'tish jarayonini rag'batlantirish, mamlakat yashil iqtisodiyot sari intilayotganida hech kim ortda qolmasligini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu bayonot doirasida tomonlar adolatli energiyaga o'tish yo'lidagi asosiy to'siqlarni aniqlash va ushbu masalalar bo'yicha milliy ijtimoiy muloqotni boshlash uchun mamlakatning tartibga solish va institutsional imkoniyatlarini mustahkamlashga e'tibor qaratadi. Bu sa'y-harakatlar “O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi” va unga tegishli harakatlar dasturiga hamohangdir.

Dastur asosiy manfaatdor tomonlarni, jumladan, davlat organlari, xususiy sektor va fuqarolik jamiyatini adolatli energiyaga o'tish davridagi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni birgalikda hal qilish maqsadida jalb qilish uchun ishlab chiqilgan.

Uchrashuv yakunida tomonlar O'zbekistonda yanada mustahkam va inklyuziv energiya tizimini yaratishga qaratilgan, mamlakatning iqlim bo'yicha kengroq maqsadlari va barqaror rivojlanish maqsadlariga mos keladigan keyingi qo'shma tashabbuslarda hamkorlik qilishga kelishib oldilar.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi delegatsiyasi Global yashil o'sish instituti (GGGI) **6,5 mln. AQSh dollari** miqdoridagi grant mablag'larini ajratish ko'zda tutilgan **“Yashil iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi doiraviy kelishuv** imzolandi.

2024-yil 15-noyabr kuni COP-29 doirasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi delegatsiyasi Global yashil o'sish instituti (GGGI) Bosh direktorining o'rinbosari va yashil o'sishni rejalashtirish va amalga oshirish bo'limi boshlig'i Helena McLeod bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda tomonlarning o'zaro amalga oshirayotgan loyihalarining joriy holati, xususan, **“O'zbekiston tomonidan Parij bitimini amalga oshirishga ko'maklashish va 6-moddaga muvofiq Koreya Respublikasi bilan birgalikdagi harakatlarni qo'llab-quvvatlash” loyihasi** bo'yicha hamkorlik yo'nalishlari muhokama qilindi.

Mazkur loyiha bilan hukumatga iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash, ayniqsa, yashil investitsiyalarni safarbar qilish, aqlli va iqlimga moslashuvchan qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, strategik ekologik baholash, barqaror va yashil moliyalashtirish, karbon bozorlarni rivojlantirishda ko'mak berilishi alohida ta'kidlab o'tildi.



Uchrashuv so'ngida, tomonlar o'rtasida **6,5 mln. AQSh dollari** miqdoridagi grant mablag'larini ajratish ko'zda tutilgan **“Yashil iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi doiraviy kelishuv** imzolandi.

**Mazkur kelishuvdan asosan ikkita maqsad ko'zlangan:** Global yashil o'sish instituti (GGGI)ning O'zbekistondagi 2024-2028 yillarga (5 yillik) mo'ljallangan Mamlakat Hamkorlik Dasturi doirasida yashil iqtisodiyotga o'tishga ko'maklashish bo'yicha texnik ko'mak ko'rsatish borasidagi loyiha tashabbuslari doirasida hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda KOICA moliyaviy ko'magi doirasida amalga oshirilishi kutilayotgan “O'zbekiston tomonidan Parij bitimini amalga oshirishga ko'maklashish va Parij bitimi 6-moddasiga muvofiq O'zbekiston va Koreya o'rtasidagi sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash” loyiha taklifini ma'qullash.

**a) GGGIning O'zbekistondagi 2024-2028 yillarga (5 yillik) mo'ljallangan Mamlakat Hamkorlik Dasturida quyidagi yo'nalishlar o'z aksini topgan:**

(i) yashil investitsiyalarni safarbar qilish, ustuvor sektorlarda barqaror moliyadan foydalanish imkoniyatini yaxshilash;

(ii) iqlim bo'yicha bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish va Orol dengizi mintaqasining yashil tiklanishini qo'llab-quvvatlash;

(iii) aqlli va iqlimga moslashuvchan qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi (Climate Smart & Resilient Agriculture and Forestry) tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;

(iv) energiya samaradorligini oshirish, qurilish sektori va sanoatda yashil texnologiyalarni joriy qilish va yashil urbanizatsiyani qo'llab-quvvatlash;

(v) O'zbekistonda karbon (uglerod) bozorlarini rivojlantirish uchun me'yoriy-huquqiy/regulyativ va institutsional yordam ko'rsatish.

**b) "O'zbekiston tomonidan Parij bitimini amalga oshirishga ko'maklashish va 6-moddaga muvofiq Koreya Respublikasi bilan birgalikdagi harakatlarni qo'llab-quvvatlash" loyihasidan ko'zda tutilgan asosiy maqsadlar:**

Parij bitimining 6-moddasiga muvofiq O'zbekiston va Koreya o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish, bunda issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish uchun iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarida baholash va tahlillarni amalga oshirish va o'zaro hamkorlik bo'yicha harakatlar rejasini ishlab chiqish;

Iqlim moliyasi, Monitoring, hisobot va tekshiruv (MRV) tizimi, iqlimga moslashish va iqlim o'zgarishini oldini olish bo'yicha institutsional salohiyatni oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

Strategik ekologik baholash, barqaror va yashil moliyalashtirish, xalqaro uglerod bozorlarini rivojlantirish bo'yicha texnik ko'mak (grant) va investitsiya loyihalarini amalga oshirish kabi qator tashabbuslarni va takliflarni o'z ichiga oladi.

Mazkur kelishuv Global yashil o'sish instituti (GGGI) hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi o'rtasida keng miqyosda uzoq muddatli hamkorlikni yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratadi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) o'rtasida **"O'zbekistonda xususiy sektorga ko'mak va iqtisodiy siyosat bo'yicha maslahatlar" loyihasiga** qo'shimcha ravishda **3 mln. yevro** miqdoridagi grant mablag'larini ajratish to'g'risida kelishuv imzolandi

2024-yilning 13-noyabr kuni Boku shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha Tomonlar konferensiyasi 29-sessiyasi (COP29) doirasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi delegatsiyasi Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) Katta Loyiha Direktori Ilka Starrost bilan uchrashuv o'tkazdi.



Uchrashuvda tomonlarning o'zaro amalga oshirayotgan loyihalarning joriy holati, xususan tomonlarning o'zaro hamkorligida amalga oshirilayotgan "O'zbekistonda xususiy sektorga ko'mak va iqtisodiy siyosatlar bo'yicha maslahatlar" loyihasi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar hamda bu bo'yicha hamkorlik yo'nalishlari muhokama qilindi.

***Ma'lumot uchun: "O'zbekistonda xususiy sektorga ko'mak va iqtisodiy siyosatlar bo'yicha maslahatlar" loyihasi bo'yicha kelishuv 2023-yil dekabr oyida Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha Tomonlar konferensiyasi 28-sessiyasi (COP28) doirasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda GIZ o'rtasida imzolangan.***

*Mazkur loyiha doirasida sanoatni yashillashtirish, xususiy sektorni yashil iqtisodiyotga o'tishda qo'llab-quvvatlash maqsadida Germaniyaning 9 mln yevro miqdoridagi grand mablag'lari jalb qilingan.*

Mazkur loyiha hukumatga iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun shart-sharoitlarni ta'minlashda, ayniqsa, **"yashil" sanoatlashtirish va "yashil" iqtisodiyot bo'yicha davlat va xususiy sektor salohiyatini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishda ko'mak berishi** alohida ta'kidlab o'tildi.


Loyiha issiqxona gazlarini o'lchash va sertifikatlash bo'yicha ekspert bilimlarini taqdim etadi, O'zbekistonning xalqaro issiqxona gazlari savdosida ishtirok etishini va **Yevropa ittifoqining Transchegaraviy tartibga solish mexanizmiga (CBAM) moslashishini qo'llab-quvvatlaydi. Xususiy sektor resurslarni tejaydigan, barqaror ishlab chiqarish uchun "yashil" texnologiyalarni moslashtirishda, masalan, aylanma (sirkular) iqtisodiyot va "yashil" sanoat parklari modellari doirasida qo'llab-quvvatlanadi.**

Uchrashuv so'ngida tomonlar o'rtasida "O'zbekistonda xususiy sektorga ko'mak va iqtisodiy siyosat bo'yicha maslahatlar" loyihasiga qo'shimcha ravishda **3 mln. yevro** miqdoridagi grant mablag'larini ajratish to'g'risida kelishuv imzolandi.

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalqaro issiqxona gazi savdosi bo'yicha loyihalarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida"gi 117-sonli qarori tasdiqlandi**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-martdagi “Xalqaro issiqxona gazi savdosi bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori tasdiqlandi.

Qarorga ko‘ra, **qisqartirilgan issiqxona gazlari emissiyasini xalqaro savdoga chiqarishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishni tartibga soluvchi Nizom** tasdiqlandi.



**Iqtisodiyot va moliya vazirligi** xalqaro va respublika darajasida issiqxona gazi savdosini tartibga solish va amalga oshirishni muvofiqlashtirish va boshqarish uchun **mas‘ul bo‘lgan ijro etuvchi Milliy organ** sifatida hamda uning huzuridagi **“Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi” ishchi organ** sifatida ishtirok etishi belgilandi.

## Tanlov shakli



**Tender** (davlat-xususiy sherikligi to'g'risidagi qonunchilikka asosan)



**"E-auksion"** platformasida **elektron tanlov**

### Baholash mezonlari

- Loyihada foydalaniladigan texnologiyalarning barcha talablarga javob berishi;
- Iqtisodiy maqbulligi;
- Xalqaro tan olingan standartlardan (**Gold, VERRA, CDS, ISO:14064**) foydalanish;
- Hukumatga qoladigan **eng yuqori ulush**;
- Xalqaro tan olingan standartlardan (**Gold, VERRA, CDS, ISO:14064**) foydalanish;
- Xorijiy korxonalar loyihani amalga oshirganda mahalliy korxonani jalb qilishi.

#### **Loyiha toifalari:**

**1-toifa.** Faoliyati natijasida atrof-muhitga zarar yetkazuvchi obyektlarda, o'rmon xo'jaliklarida issiqxona gazlarini qisqartirishga va hosil bo'lgan qisqartirilgan hajmi sotishga qaratilgan investitsion loyihalar.


**2-toifa.** Respublika hududida amalga oshirilgan loyihalar natijasida qisqartirilgan issiqxona gazi hajmini sotishga qaratilgan loyihalar.

Loyihalarni shaffoflik, ochiqlik va bozor tamoyillari asosida tanlab olish va amalga oshirishni ta'minlash maqsadida issiqxona gazlari emissiyasini xalqaro savdoga chiqarishga qaratilgan investitsion loyihalar davlat-xususiy sheriklik tamoyillari hamda ochiq tanlov asosida amalga oshiriladi.


Loyihalar natijasida hosil bo'lgan uglerod birliklari boshqa mamlakatlarning **Milliy miqyosda belgilanadigan hissalar (NDC)**ni qoplash maqsadida **Xalqaro o'tkaziladigan yumshatish natijalari (ITMO)** sifatida foydalanilmaydi.

Shuningdek, uglerod birliklari ixtiyoriy bozori loyihalari, qisqartirilgan issiqxona gazlari emissiyasi hajmi va ishlab chiqiladigan verifikatsiyalangan uglerod birliklari hisobini yuritish maqsadida **Milliy uglerod birliklari reyestri yo'lga qo'yiladi.**

## 1-toifa loyihalarni amalga oshirish tartibi:



## 2-toifa loyihalarni amalga oshirish tartibi:



**Yashil energiya” sertifikatlari tizimini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadida mamlakatdagi birinchi generatsiya obyektlari ro'yxatdan o'tkazildi**

O'zbekiston Respublikasi elektr energiyasining qayta tiklanuvchi manbalardan foydalangan holda ishlab chiqarilganini tasdiqlovchi “yashil energiya” sertifikatlari tizimini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadida mamlakatda birinchi generatsiya obyektlari ro'yxatdan o'tkazildi.

2023-yil 8-iyunda **I-REC tizimida Iqtisodiyot va moliya vazirligi Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya manbalarini sertifikatlash tashkiloti (I-REC)ning Milliy Emitent** sifatida tasdiqdan o'tdi.

*Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-maydagi PQ-156-sonli qaroriga muvofiq, Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya manbalarini sertifikatlash tashkiloti (I-REC) bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha chora-tadbirlar hamda ushbu I-REC tashkilotning O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Emitent sifatida (vakolatli organ) belgilandi.*

Shu bilan birga, **Milliy Emitent va "O'zbekgidroenergo" AJ (Registrant sifatida)** tizimidagi gidroelektrstansiyalarda ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun **"Yashil energiya" sertifikatlari tizimini joriy etish maqsadida** 2023-yil 27-iyunda **sertifikat chiqarishning standart shartlari to'g'risidagi shartnomaga tuzildi.**

Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Emitent) "O'zbekgidroenergo" AJ (Registrantning) o'z tarkibidagi generatsiya obyektlarini "yashil energiya" sertifikatlari yagona elektron platformasida (I-REC) jami 962,4 MVt bo'lgan 4 ta generatsiya obyektini (Chorvoq GES – 666 MVt, Xo'jakent GES – 165 Mvt, G'azalkent GES – 120 MVt, Tuyabo'g'iz KGES – 11,4 MVt) O'zbekiston Respublikasida birinchi bo'lib ro'yxatidan o'tkazdi.

Mazkur tizimga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiyani ishlab chiqaruvchilar "yashil sertifikat"ni yakuniy foydalanuvchiga (tovarlar ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar) sotadi va bu bilan **energiyaning "tozaligi"ga kafolat beradi.**

Bu esa yakuniy foydalanuvchilarga o'z mahsulotlarini sotish va eksport qilish hajmini oshirish (Yevropa Ittifoqida sertifikatlar majburiydir), xalqaro va xorijiy moliya tashkilotlaridan **"yashil" investitsiyalar va "yashil" kreditlarni jalb qilish imkonini beradi.**

**Bir dona "yashil energiya" sertifikati** qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda **1000 kVt/soat elektr energiyasi** ishlab chiqarilganligini tasdiqlaydi. Respublikada birinchi marta "O'zbekgidroenergo" AJ birja savdolarida mazkur sertifikatlarning sotuvchisi sifatida ishtirok etdi.

O'tkazilgan birja savdolari natijalariga asosida 2024-yil yakuniga qadar **48000 dan ortiq "yashil energiya" sertifikatlari sotildi.**

Mazkur sertifikatlar "Energoqurilishindustriya", mamlakatimizda faoliyat "O'zsanoatqurilishbank", va "Worleyparsons" kompaniyalari tomonidan xarid qilindi.

"Yashil" energiya sertifikatlarini olib borayotgan "UzBAT", "Click" keng targ'ib qilish maqsadida "Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi" tomonidan xususiy sektor va davlat korxonalarini bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilib, bir qator xalqaro konferensiya, davra suhbatlari, o'quv-seminarlarda ishtirok etib

kelinmoqda. Shu jumladan, “yashil” energiya sertifikatlari savdosini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish maqsadida qator xorijiy (Masdar, Secca, Nebras Power, Datavolt) va mahalliy (Solar Nature, “O‘zenergოსotish” AJ) korxonalar bilan uchrashuvlar tashkillashtirildi.

### 🔗 **“Yashil energiya” sertifikatlari tizimining afzalliklari nimada?**

*Mazkur tizimga ko‘ra, qayta tiklanuvchi energiyani ishlab chiqaruvchilar “yashil sertifikat”ni yakuniy foydalanuvchilarga (tovarlar ishlab chiqaruvchilar, iste‘molchilar) sotadi va bu bilan energiyaning “tozaligi”ga kafolat beradi.*

✔ Ushbu tizim barcha rivojlangan davlatlar hamda **50 dan ortiq** rivojlanayotgan mamlakatlarda joriy qilinib, 2022-yilda uning bozori hajmi **23,4 mlrd dollarni** tashkil qildi. 2030-yilga kelib esa bu ko‘rsatkich **110,9 mlrd dollarga** yetishi kutilmoqda.

Xalqaro sertifikatlash tashkilotlaridan **“The International Tracking Standard Foundation”** standartlari **50 dan ortiq** mamlakatlarda (Xitoy, BAA, Turkiya, Malayziya, Braziliya, Meksika va boshqalar) amal qiladi.

📌 Bu yakuniy foydalanuvchilarga o‘z mahsulotlarini sotish va eksport qilish hajmini oshirish, xalqaro va xorijiy moliya tashkilotlaridan “yashil” investitsiyalar hamda “yashil” kreditlarni jalb qilish imkonini beradi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) bilan hamkorlikda **“O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish istiqbollari” mavzusida seminar-trening** tashkil etildi

Joriy yilning 15–16-may kunlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) hamda vazirlik huzuridagi “Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi” bilan hamkorlikda “O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish istiqbollari” mavzusida seminar-trening tashkil etildi.



Mazkur seminarni tashkil etishdan maqsad **“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish tadbirlarini rejalashtirish, amalga oshirish va natijalarni doimiy baholab borish** bo‘yicha davlat hamda xususiy tashkilotlarning **texnologik salohiyatlarini mustahkamlash**, ushbu yo‘nalishda doimiy faoliyat

yurituvchi mahalliy trenerlar tayyorlash hisoblanadi.

Tadbirda vazirlik va idoralar hamda mahalliy korxonalar va tashkilotlarning “yashil” iqtisodiyot bo‘yicha mas‘ul etib belgilangan xodimlari, oliy o‘quv yurtlari vakillari ishtirok etishdi.

Tadbirni “Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi” direktori Temur Malik Narziqulov, GIZ Barqaror iqtisodiy rivojlanish dasturi menejeri Beate Shorayt hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish va rivojlantirishni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i Shoxzod Islamov kirish so‘zi bilan ochib berdi. Shundan so‘ng vazirlik va idoralar mas‘ul xodimlariga quyidagi mavzularda ma‘ruzalar qilindi:



“Yashil” iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta‘minlash, issiqxona gazlarini qisqartirish, xalqaro uglerod bozorlari, emissiya savdosi tizimlari (ETS, CDM, JCM), Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG), xalqaro va mahalliy ekologik huquq, “yashil” urbanizatsiya, shaharsozlik, binolar va qurilish, infratuzilma, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or xorij tajribasi hamda uning amaliy ahamiyati, iqlim moliyasi va vositalari, “yashil” soliqqa tortish tizimi, “yashil” moliya, “yashil energiya” sertifikatlari, iqlimga chidamli qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish, “yashil” kreditlar va obligatsiyalar.

Shuningdek, seminar davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining “yashil” texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilishga ko‘maklashish, emitent tashkilotlarni “yashil” obligatsiyalar tarkibini ishlab chiqishda, tashqi sertifikat olishda hamda ta‘sir va daromadlar to‘g‘risidagi hisobotlarni nashr etishda qo‘llab-quvvatlash, istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish manbalarini shakllantirish hamda texnik hamda moliyaviy ko‘mak jalb etishga ko‘maklashish masalalari keng muhokama qilindi.

Seminar-trening yakunida seminar mavzulari bo‘yicha tayyorlangan yakuniy testni ijobiy yakunlagan ishtirokchilar tegishli sertifikatlar bilan taqdirlandi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) bilan hamkorlikda **“Yashil startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlash dasturi” g‘oliblarini taqdirlash marosimi** bo‘lib o‘tdi

Joriy yilning 29-mart kuni Iqtisodiyot va moliya vazirligi Germaniya xalqaro hamkorlik agentligi (GIZ) bilan birgalikda amalga oshirilayotgan “O‘zbekistonda yashil sanoatlashtirishni rivojlantirish” loyihasi doirasida “Yashil startap loyihalarini g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash dasturi” doirasida g‘oliblarni taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.



Dastur doirasida **6 nafar innovatsion va “yashil” loyihalar** tanlab olindi va ularni rag‘batlantirish maqsadida startap bosqichiga qarab quyidagi loyihalarga **20 milliondan 200 million so‘mgacha grant mablag‘lari** ajratildi:

qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan, avtomobil yo‘llarida o‘rnatishga moslashtirilgan quvvati 1-5 kilovattgacha bo‘lgan shamol generatori “Samsara” loyihasi — **200 million so‘m**;

quyosh panellaridan ishlab chiqariladigan elektr energiyasini taqsimlash va boshqarish uchun o‘rnatiladigan “Innovatsion mahalliy inverter ishlab chiqarish” loyihasi — **60 million so‘m**;

sanoat chiqindi suvlaridan zarar ko‘rgan suv havzalarini innovatsion o‘simliklar bilan tozalashga qaratilgan “Clean Water” loyihasi — **60 million so‘m**;

quyosh panellarini harakatlantirish orqali ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan “Smart Panels” loyihasi — **60 million so‘m**;

ion almashuvchi yelimdan foydalangan holda sanoat korxonalaridagi chiqindi suvlarni tozalab, qayta ishlab chiqarishga yo'naltirish imkonini yaratuvchi "Wastewater Treatment" loyihasiga — **60 million so'm**;

havodagi zararli zarrachalar miqdori, issiqxona gazlari hajmi va tarkibi hamda havo namligini aniqlash imkoni beruvchi qurilma — "Air Quality" g'oyasiga — **20 million so'm**.

---

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-mayda "Yashil energiya" sertifikatlari tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-156-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-avgustda "Jahon banki ishtirokida "energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-271-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentyabrda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 514-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentyabrda "Yashil energiya" sertifikatlari joriy etilishini kengaytirish va "yashil moliyalashtirish" mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 515-sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktyabrda "Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 561-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-martda "Xalqaro issiqxona gazi savdosi bo'yicha loyihalarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida"gi 117-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyunda "O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-213-sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 800-sonli qarori
10. Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy web-sahifalari: <https://www.imv.uz> <https://www.green.imv.uz>
11. Iqtisodiyot va moliya vazirligining ichki ma'lumotlari



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
IQTISODIYOT VA MOLIYA  
VAZIRLIGI

2024-YIL YAKUNI BO'YICHA

# YILLIK HISOBOT

## YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA

Yashil iqtisodiyotga o'tish va  
rivojlantirishni  
muvofiqlashtirish boshqarmasi

**Mualliflar:**

Shoxzod Islamov  
Abdualil Maxmudov

**Telefon:**

+998 71 203 50 50

**Elektron manzil:**

green@imv.uz

**Manzil:**

Istiqlol 29, Toshkent,  
100017, O'zbekiston

[www.green.imv.uz](http://www.green.imv.uz)

